The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health	1100
Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilkhom Ravshanovich	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан	1104
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices	1109
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri	1117
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlar 1135	
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
Xolikov Sarvar Xayitbayevich	
O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari.....	1153
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich , PhD	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli.....	1158
Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich , tayanch doktorant, Salimova Zaxro Sobirjon qizi , magistr	
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili.....	1164
Xasanova Nasiba Nazar qizi , tadqiqotchi	
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi	1170
Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi	
Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы.....	1176
Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна	



BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI TADQIQ QILISH YONDASHUVLARI TAHLILI

Xasanova Nasiba Nazar qizi
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili berilgan. Jumladan, Barqaror rivojlanish konsepsiyasini quyidagi yondashuvlardan tahlil qilishga qaratilgan: ekologik-tizimli, uchlik, “yashil” iqtisodiyot. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyot va Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga xorijiy va mahalliy olimlar talqinlarini o’rganilib, nazariy xulosa va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so’zlar: barqaror rivojlanish, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik-tizimli, “yashil” iqtisodiyot, uch tomonlama yondashuv.

Abstract: This article provides an analysis of research approaches to the concept of sustainable development. In particular, it aims to analyze the concept of sustainable development from the following approaches: ecological-systemic, triple, “green” economy. Also, the interpretations of foreign and domestic scientists on the concept of “green” economy and sustainable development were studied, and theoretical conclusions and practical suggestions were given.

Key words: sustainable development, concept of sustainable development, ecological-systemic, green economy, triune approach.

Аннотация: В данной статье представлен анализ исследовательских подходов к концепции устойчивого развития. В частности, ставится цель проанализировать концепцию устойчивого развития со стороны следующих подходов: эколого-системного, тройного, «зеленого» хозяйства. Также были изучены трактовки зарубежных и отечественных ученых понятия «зеленая» экономика и устойчивое развитие, даны теоретические выводы и практические предложения.

Ключевые слова: устойчивое развитие, концепция устойчивого развития, эколого-системная, «зеленая» экономика, триединный подход.

KIRISH

Hozirgi vaqtda barqaror rivojlanish barcha davlatlar va manfaatdor tomonlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2015-yil 25-sentyabr Parijda BMT Bosh Assambleyasiga kiruvchi 193 davlat “Dunyomizni o’zgartirish”^[1] deb nomlangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo’yicha kun tartibini qabul qildi. Kun tartibi 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari va 169 ta tegishli maqsadni o’z ichiga oladi. 2000–2015-yillarga mo’ljallangan Mingyillik rivojlanish maqsadlari^[2] dan farqli o’laroq (8 ta faoliyat yo’nalishi, 18 ta vazifa va 48 ta indikator ko’rsatkichlari), Barqaror rivojlanish maqsadlari yanada kengroq ko’lamga ega. Hujjat kundalik ritorika emas, balki undan ahamiyatliroq va odamlar, sayyora va umumiy farovonlik uchun harakatlarga aniq chaqiriqni o’z ichiga oladi. 2030-yilgi kun tartibi global hamjamiyatni barqaror, bardoshli va ishonchli dunyo sari harakat qilish uchun dadil va samarali choralar ko’rishga chaqiradi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini^[3] amalga oshirishda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko’rsatkichlarning sifatli bajarilishi, global ishlab chiqarishning muhim bo’g’iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish dolzarb masaladir. Shuningdek, “O’zbekiston–2030”^[4] strategiyasida belgilangan asosiy g’oyalar:

- barqaror iqtisodiy o’sish orqali daromadi o’rtachadan yuqori bo’lgan davlatlar qatoridan o’rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to’liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabilarni amalga oshirish hozirgi kunni bosh masalasidir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish atamasi XX asrning 80-yillarida ilmiy jamoatchilikka G. X. Brundtland komissiyasi tomonidan kiritilgan: rivojlanish «barqaror, uzoq muddatli bo'lishi va u hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishi, kelajak avlodlarni o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidan mahrum etmasligi zarur»^[5]. Shuni ta'kidlash kerakki, barqaror rivojlanish ko'plab omillar ta'sirida bo'lgan jarayon bo'lib, uni o'rganishdagi yondashuvlarda ilmiy jamoatchilik, biznes va hukumat vakillari o'rtasida o'zaro farq qiladi.

80-yillarning oxiridan boshlab barqaror iqtisodiy rivojlanish muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy mualliflarning tadqiqotlari mavzusiga aylandi. Bugungi kunda zamonaviy olimlar barqaror rivojlanishning ekologik, institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy kabi muhim rivojlanish mezonlarini aniqlaydilar. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish sohasidagi tadqiqotchilarning katta e'tibori konsepsiyani quyidagi yondashuvlardan tahlil qilishga qaratilgan: ekologik-tizimli, uch tomonlama, «yashil» iqtisodiyot.

Ekologik-tizimli yondashuv barqaror rivojlanish konsepsiyasi shakllanishining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan. Dastlab, ushbu yo'nalish doirasida ekologik barqarorlik, biosfera va bioxilma-xillikni saqlash, resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi muammolari ko'rib chiqildi.

Bu sohada ilk tadqiqotchilar D. Meadows, J. Randers bo'lganlar^[6]. Ular kompyuter modellash usulidan foydalanib, 21-asrning birinchi yarmida aholi o'sishi tendensiyalari, sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari, tabiiy resurs zaxiralarining kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi oxir oqibat global falokatga olib kelishini hisobga olgan holda, «iqtisodiy o'sishning tabiiy chegarasi»ga yaqinlashishini ko'rsatadigan «O'sish chegaralari» hisobotini taqdim etdilar.

Xorijiy tadqiqotchi J. Pezzey ishida «barqaror rivojlanish»ning oltmishdan ortiq talqini qayd etilgan bo'lib, ular orasida quyidagilar bor: «barqaror rivojlanish – bu ekologik barqarorlikni va barqaror, doimiy iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan iqtisodiy rivojlanishdir»; «barqaror rivojlanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan ularning miqdorini kamaytirmaydigan yoki sifatiga putur yetkazmaydigan tarzda foydalanishni nazarda tutadi, aks holda, bu ularning kelajak avlodlar uchun foydaliligini kamaytiradi»; «barqaror rivojlanish deganda yaqin kelajakda tabiiy va ijtimoiy muhit tomonidan qo'llab-quvvatlaniladigan iqtisodiy o'sish tushuniladi. Ideal barqaror jamiyat - bu barcha energiya quyosh manbalaridan olinadigan va qayta tiklanmaydigan resurslar qayta ishlanadigan jamiyatdir^[7].

Rus olimi V.A. Koptuyug va boshqalar tadqiqotlarida, «barqaror rivojlanish» konsepsiyasining quyidagi talqini berilgan: «kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini saqlab qolgan holda, hozirgi avlodlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan rivojlanishdir»^[8]. A.D. Ursulning ta'kidlashicha, barqaror rivojlanishni «jamiyatning va atrof-muhitning sezilarli darajada tanazzuliga yo'l qo'ymaydigan rivojlanish» deb qarash mumkin^[9]. V.I. Danilov-Danilyanning fikriga ko'ra, barqaror rivojlanish «shunday ijtimoiy rivojlanishki, unda yaratilgan turmush sharoiti insonning tanazzulga uchrashiga olib kelmaydigan, tabiiy muhit buzilmagan, ijtimoiy buzg'unchi jarayonlar jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi darajada rivojlanmagan bo'ladi»^[10]. A. P. Tyapuxin fikricha, bir vaqtning o'zida, barqaror rivojlanish inson sivilizatsiyasi atrof-dagi tabiatni yo'q qilmaydi, aksincha, uning rivojlanish qonunlarini hisobga oladi va belgilangan cheklovlar va taqiqlarni o'rnatadi^[11].

Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasining evolyutsiyasi «yashil» iqtisodiyot konsepsiyasi yaratilishiga olib keldi va jamiyat tabiat tizimlari bilan birga ham ohang rivojlanishi e'tirof etildi^[12]. «Global yashil iqtisodiyot» konsepsiyasi BMTning atrof-muhit dasturi (2009-yil) doirasida taklif etildi^[13].

Bizning fikrimizcha, sanab o'tilgan tadqiqotlar «barqaror rivojlanish» konsepsiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqish va atrof-muhit muammolari va antropogen omilning atrof-muhitga ta'sirini ommalashtirishga jiddiy hissa qo'shdi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanishini bashorat qilish va empirik tadqiqotlar olib borish imkoniyatini bermaydi. Bu yondashuv keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va birinchi navbatda tabiiy fanlar hamjamiyatida qo'llaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda quyidagi metod va usullar qo'llanildi: tizimli va omiliy tahlil, funksional va qiyosiy tahlil, axborotni qayta ishlashning usullari

TAHLIL VA NATIJALAR

Uchtomonlama yondashuvda barqaror rivojlanishni talqin qilish 1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyalari ishi natijalariga ko'ra shakllana boshladi. Konferensiyada jahon hamjamiyatida barqaror rivojlanishga erishish uchun «XXI asr Kun tartibi» harakat dasturi qabul qilindi. Konferensiyada G.X.Brundtland komissiyasining g'oyalari rivojlantirilib, barqaror rivojlanish deganda «Kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmasdan hozirgi avlod ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanish» tushunilishi ta'kidlandi^[5].



Barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda E.B. Barbierning ishlari muhim rol o'ynaydi, u «resurslarga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning barqarorligiga erishishning minimal zaruriy sharti barqarorlik uchun zarur shartlarni bajarishdir» deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish tabiiy resurslardan samarali foydalanishga, shuningdek, tugab borayotgan tabiiy resurslarni o'zlashtirishdan olingan renta boshqa ishlab chiqarish (tabiiy) aktivlarga yo'naltirilishiga asoslanadi ^[14].

Iqtisodiy va ekologik jihatlarni birlashtirish rivojlanish tashabbuslari nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni, balki mintaqaning uzoq muddatli farovonligi bilan bog'liq bo'lgan atrof-muhit va tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ham ta'minlaydi ^[15].

Ekologik jihatga e'tibor bermaslik resurslarning kamayishi, ifloslanishi va ekotizimlarning degradatsiyasi kabi salbiy oqibatlariga, bu esa mintaqalarning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligiga putur yetkazishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, "...ekologik jihatlarini hisobga olish mintaqalarga iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini tushunishga va salbiy ta'sirlarni yumshatish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi" ^[16].

Xorijlik olim H. Deyli barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik jihatlarini ilmiy ishlanmalarida o'rgangan. Olim mintaqalarda resurslar va ekotizimlarning ekologik chegaralarini tan olish muhimligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, an'anaviy iqtisodiy o'sishni tabiiy resurslarni tugatmasdan va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan cheksiz davom etib bo'lmaydi ^[17].

R. Kostansa "...iqtisodiyot va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ko'rib chiqish muhimligini, resurslarni barqaror boshqarish va atrof-muhitni boshqarish zarurligini ta'kidlagan" ^[18].

Xorijlik olimlar S. Levin va V. Klark murakkab tizimlar va ularning barqarorlikka ta'sirlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ular ekologik tizimlardagi chidamlilik, ularning buzilishlarni qabul qilish, ularning tuzilishi va funksiyalarini saqlab qolish qobiliyatini o'rgangan ^[19]. Taniqli iqtisodchi olim Uilyam Nordxaus (2018-y. Nobel mukofoti) tadqiqotlarida iqlim o'zgarishi iqtisodiyoti va integratsiyalashgan baholash modellarini (IAMs) ishlab chiqqan. Uning (DICE) modeli iqlim siyosatining xarajatlari va afzalliklarini baholash uchun iqlim dinamikasi, iqtisodiy o'sish, energiyadan foydalanish va uglerod emissiyasini birlashtirgan ^[20]. Olimlar moslashuvchan boshqaruvning muhimligini, barqaror rivojlanish uchun ekotizimlarning o'zgarishlar va buzilishlarga moslashish qobiliyatini ta'kidlagan.

Bir guruh rus olimlari ^[21] barqaror rivojlanish - bu «resurs bazasidan oqilona foydalanish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini xavf ostiga qo'ymasdan, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni yaratish» deb ta'kidlaydilar. H.N. Gizatullin va V.A. Troiskiy ^[22] o'z tadqiqotlarida «barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchta asosiy nuqtayi nazarning kombinatsiyasi natijasida paydo bo'lganligini tasdiqlaydi: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik. Shunga ko'ra, barqaror rivojlanishning uchta maqsadi haqida tuxtaladilar: atrof-muhit yaxlitligi, eko-samaradorlik va eko-adolat».

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar «barqaror rivojlanish» konsepsiyasining mohiyatini «iqtisodiy o'sish va rivojlanish o'rtasidagi optimal mutanosiblikni saqlash, tabiiy resurslarni ijtimoiy va tabiiy resurslarni qayta ishlab chiqarishning barqaror jarayonlarini ta'minlaydigan darajada takror ishlab chiqarish» deb belgilaydilar. V.L. Tovbina ^[23] barqaror rivojlanishni «ijtimoiy adolat va ekologik mas'uliyat tamoyillariga javob beradigan uyg'un iqtisodiy rivojlanish jarayoni» sifatida qaraydi.

Maxalliy olimlarimizdan A.A. Isadjanov fikricha barqaror rivojlanishning asosiy mohiyati rivojlanishni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirish va rag'batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo'llashga, energiya samaradorligini ta'minlashga va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni hal etishga qaratilgan ^[24].

Vaxabov A. fikricha barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini esa xavf ostiga qo'ymaslikka asoslangan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanishni «ijtimoiy»- «iqtisodiy»-«ekologik» uchlikning o'zaro bog'liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara hisobidan taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur etish mumkin. Barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv global miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning normal faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qilishi zarur bo'ladi ^[25].

Nigmatov A. ta'rificha, barqaror rivojlanish konsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatining o'zaro uzviy bog'langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o'z ichiga olgan g'oyalar tizimidir ^[26].

Uchlik yondashuvi tadqiqotning tizimli xarakterini o'z ichiga oladi, bunda barcha jihatlar yagona obyekt sifatida ko'rib chiqiladi va har qanday jihatni istisno qilish ko'rib chiqilayotgan tizimning beqarorligiga olib keladi.

XXI asrning boshlaridan dunyo olimlari «Yashil» iqtisodiyot to'g'risida juda ko'p munozaralar olib bormoqdalar, u iqtisodiy o'sishning omillari, atrof-muhitga tobora bog'liq bo'lib qolayotganini ta'kidlamodalar ^[27].

Iqtisodiy adabiyotda «yashil iqtisodiyot» tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda ^[28] qo'llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda «yashil iqtisodiyot» mamlakat



tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba'zi tadqiqotlarda "yashil iqtisodiyot" tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa "yashil iqtisodiyot" – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish hisoblanib, uning asosini sof yoki "yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rif UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir [29]. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, "yashil iqtisodiyot" nazariyasi, tamoyillari yoki "yashil iqtisodiyot" siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi [29]. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo'naltirish zarur bo'ladi.

Vaxabov A. fikricha, "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi va barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o'z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi kerakki, keyingi avlodlar ulardan kam bo'lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo'lishlari lozimligida namoyon bo'ladi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi [25].

"Yashil" iqtisodiyotning mohiyati va unga o'tish konsepsiyasi masalalari O.V.Bashorina, I.M.Temkina "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jamiyatning barqaror rivojlanishi, kambag'allikni qisqartirish asosidir" deb baholashgan [30]. A.V.Neverov, Vodopyanova "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida davlat inson kapitali, tabiiy kapital, ijtimoiy kapital, siyosiy kapital va moliyaviy kapitalarni muvofiqlashtirib foydalanish" zarurligini ta'kidlaydilar [31]. Xavf solayotgan CO₂ zaharli gazlar inqirozi to'g'risida" xabar beradilar [32]. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun Rossiyada juda katta imkoniyatlar mavjudligi, ya'ni Rossiya resurslar mamlakati (tabiiy boyliklari ko'p, lekin iqtisodiy qashshoq), iqtisodiyotni yashillashtirish uchun "yashil" investitsiyalar kerak, yashil tarmoqlarni moliyalash, yangi ish o'rinlarini barpo qilish orqali aholi turmush tarzini yaxshilash mumkin" degan fikrni iqtisodchi olim N.N.Yashalova ilgari suradi [33]. Iqtisodchi olimlar N.Piskunov va N.V.Paxomov "Yashil" iqtisodiyotga o'tish "musobaqa"sida Shvetsiya, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari yetakchilik qilmoqda" deb ta'kidlaydilar [34].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 2-dekabrda tasdiqlangan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori [35] muhim dasturiy amal hisoblanadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirishda, quyidagilar:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;



- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish maqsad qilingan.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi tarafdorlari amal qilayotgan iqtisodiy tizim aholi turmush darajasining yaxshilanishida muayyan ijobiy natijalarga olib kelganligiga qaramasdan mukammal emas, deb hisoblashadi. Ekologiyaning buzilishi (iqlim o'zgarishi, cho'llashish, bio xilma-xillikning yo'qotilishi), tabiiy kapital cheklanganligi, tugab borayotganligi, kambag'allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligini ifodalovchi holatlar hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan sabablarga ko'ra amaldagi iqtisodiy model “jigar rang iqtisodiyot”, deb ataladi.

Umuman, “barqaror rivojlanish”, “yashil o'sish” va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik “yashil iqtisodiyot” tushunchasining mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish “yashil o'sish”ni ta'minlab beradi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi. Demak, “yashil iqtisodiyot”ni barqaror rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning asosi sifatida qabul qilish mumkin.

Barqaror rivojlanishning konseptual qoidalarini o'rganar ekanmiz, ko'plab ilmiy maqolalarni tahlili «barqaror rivojlanish» va «yashil iqtisodiyot» tushunchalari o'rtasidagi munosabatlariga bag'ishlangan. Bu barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida “yashil iqtisodiyot”ning alohida ilmiy tadqiqot sohasi sifatidagi yondashuvligini ta'kidlash uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://sdgs.un.org/ru/2030agenda>
2. <https://www.un.org/ru/youthink/mdg.shtml>
3. <https://lex.uz/docs/5870397>
4. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
5. Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды и развития «Наше общее будущее». Организация объединенных наций. 1987. URL: <http://www.un.org/ru/ga/pdf/brundtland.pdf>
6. Meadows D., Randers J. Limits to growth. The 30-Year Update. UK, Earthscan, 2005. 363 p.
7. Pezzey J. Economic analysis of sustainable growth and sustainable development // Environment Department working paper. № ENV 15. Washington, DC: World Bank, 1989. 104 p.
8. Коптюг В.А., Матросов В.М., Левашов В.К. Новая парадигма развития России: комплексные исследования проблем устойчивого развития. М.: Academia; Иркутск: РИЦ ГП «Облформпечать», 2000. 459 с.
9. Урсул А.Д. Становление устойчивой цивилизации: новые глобальные цели // Философия и общество. 2016. № 1 (78). С. 29–56.
10. Устойчивое развитие: Новые вызовы: учебник для вузов / под общ. ред. В.И. Данилова-Данильяна, Н.А. Пискуловой. М.: Аспект Пресс, 2015. 336 с.
11. Тяпухин А. П. Сущность, состав и эволюция системы управления устойчивым развитием региона / А. П. Тяпухин, А. Т. Раимова // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2009. № 19(52). С. 21–29.
12. Перелет Р. А. Направления стратегии «зеленого роста». // rospromeco.com/expertnoe-mneniye/28-analytic/expertnoe-mneniye/
13. Глобалный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЭП, www.un.org/ru/events/chemistry2011/annual_report_2009.pdf
14. Barrier E. B. The concept of sustainable economic development // The economics of sustainability. – Routledge, 2017. – С. 87–96.
15. Mitlin D., Satterthwaite D. Sustainable development and cities // Sustainability the Environment and Urbanisation. – Routledge, 2014. – S. 23–61.
16. Collins A., Munday M., Roberts A. Environmental consequences of tourism consumption at major events: An analysis of the UK stages of the 2007 Tour de France // Journal of Travel Research. – 2012. – T. 51. – №. 5. – S. 577–590.
17. Daly H. E. Ecological economics and sustainable development. – Edward Elgar Publishing, 2007.
18. Costanza R. Ecological economics in 2049: Getting beyond the argument culture to the world we all want // Ecological Economics. – 2020. – T. 168. – S. 106484.
19. Levin S. A., Klark W. Toward a science of sustainability // Center for International Development Working Papers. – 2010.
20. Nordhaus W. Evolution of modeling of the economics of global warming: changes in the DICE model, 1992–2017 // Climatic change. – 2018. – T. 148. – №. 4. – S. 623–640.
21. Розенберг Г.С., Черникова С.А., Краснощеков Г.П., Крылов Ю.М., Гелашвили Д.Б. Мифы и реальность «устойчивого развития» // Проблемы прогнозирования. 2000. № 2. С. 131–154.
22. Гизатуллин Х.Н., Троицкий В.А. Концепция устойчивого развития: новая социально-экономическая парадигма // Общественные науки и современность. 1998. № 5. С. 124–130.
23. Товбина В.Л. Новая экологическая парадигма – важный фактор обеспечения устойчивого развития // Ученые записки Российского государственного гидрометеорологического университета. 2012. № 26. С. 248–265.
24. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137–138 b.



25. Вахабов А. В., Хажибакиев Ш. Х. Необходимость и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. Спецвыпуск 4. – С. 3-12.
26. Nigmatov A Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari // Monografiya. – T.: Spectrum Media Group. – 2015. – T. 120.
27. Бобилев С.Н., Кирюшина П.А., Кудрявцева О.В. Зеленая экономика и цели устойчивого развития для России. МГУ им.М.В.Ломоносова 2019, с. 283
28. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.
29. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С.
30. Башорина О.В., Темкина И.М. Переход к «зеленой» Экономике как фактор устойчивого развития и преодоления бедности. –Урал, 2012. –201 с
31. .Неверов А.В., Водопьянова Т.П. Экономика природопользования. –Минск, 2019.–117 с..
32. “Зеленая” экономика-главный тренд нового десятилетия. –М., 2021. С. 7-13с.
33. Яшалова Н.Н. “Зеленая” Экономика: региональный аспект. –Санкт-Петербург, 2014 . –194 с.
34. Пискунов Н., Пахомов Н.В. Анализ мирового опыта перехода к “зеленой” Экономике. –М., 2022. –213 с.
35. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdaqi “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” qarori PQ-436-sonli Qarori//<https://lex.uz/uz/docs/6303230>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.